

G'ARB TAMADDUNI TARIXIDA NOTIQLIK TARIXI**Mirzabayeva Saida***Oriental Universiteti Magistratura
Lingvistik Arab tili 2- kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada g'arb tamadduni tarixida notiqlik tarixi, notiqlik san'atining yirik namoyandalari haqida so'z yuritiladi*

Kalit So'Zlar: *Yunoniston, siyosiy-ijtimoiy taraqqiyot, Afina, nutq usullari, nutq texnikasi*

KIRISH

Notiqlik haqidagi tushunchalar va uning paydo bo'lishini ta'minlagan an'analar qadimdan mavjud bo'lib, o'zida keng ko'lamlı amaliyot va tajribalarni aks ettiradi. Bu esa notiqlik san'ati haqidagi zamonaviy talablarning yanada xilma-xilligiga olib keldi. Har bir shaxsning uni harakatga undaydigan, xabardor qiladigan va ishontiradigan nutq haqida o'z mezonlari bor. Ko'p jihatdan, bu mezonlarga insonning shaxsiyatini tashkil etuvchi madaniyatlar va tarixlar, shuningdek, muloqot qilishni tanlagan madaniy ob'yektlari ta'sir qiladi. Jumladan, g'arb tamaddunida ham notiqlik tarixi turli davlat, shaxs va voqealar bilan chambarchas bog'liq. Bulardan qadimgi Yunoniston va Rim so'z san'ati – ritorikaning paydo bo'lishi va rivojlanishida salmoqli o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

Ko'plab fanlarning beshigi bo'lgan qadimgi Yunoniston (Gretsiya) notiqlik san'ati sohasida umumjahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda ritorika yunon madaniyatida san'at, hatto mohirona kasb darajasiga ko'tarildi. Qadimgi Gretsiyada davlat ahamiyatiga ega barcha faoliyat turlari, ya'ni siyosat, sud-huquq tizimi kabilarda notiqlik katta ahamiyatga ega edi. Shuning uchun, nutqning izchilligi, ma'nodorligi va ta'sirchanligini o'rganishga qattiq kirishildi. Bu borada ko'zga ko'ringan yunon sofistlaridan Protagor (mil.av.480-410 yy), Goriy (mil.av.480-410yy.) va Isokrat (mil.av.436-338yy) notiqlik san'ati asoschilari edi. Ular notiqlikning amaliy tomoniga ko'proq e'tibor qaratishgan bo'lib, tinglovchilarga kuchli ta'sir qiladigan notiqlar tayyorlashni yo'lga qo'yidilar. Natijada notiqlikning turli uslublarini tadqiq etib, uni o'rganish va o'rgatish bilan shug'ullandilar.

Yunon notiqligining eng qadimiy sarchashmalari haqida deyarli hech bir yozma ma'lumot qolmagan. Notiqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni esa faqatgina Gomerning (eramizdan oldingi XII asr) «Iliada» va «Odissey» nomli dostonlaridan olish mumkin.

Gomer dostonlari ma'lumotiga qaraganda qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avval, ana shu davrlarda, Nestor, Menelay, Odissey, Ahil kabi bir talay mashhur notiqlar bo'lganlar. Gomer turli voqealar tasviri jarayonida yo'l-yo'lakay eslab

o'tgan yuqoridagi to'rtta notiqning notiqlik san'atining to'rtta yo'nalishga mansubligi, ulardan ayrimlarining esa maxsus notiqlik maktablarida tahsil olganliklarini qayd etadi. Xususan, Ahilning Feniks ismli so'z ustasi darsxonasida saboq olganligini aytadi.

Eramizdan oldingi 499-449- yillar orasida, ya'ni 50 yil davomida Eron-Yunon urushi bo'ldi. Ellik yillik urushda g'olib chiqqan yunonlar davlati tez rivojlana boshlaydi va siyosiy-ijtimoiy taraqqiyotning yuqori bosqichiga ko'tariladi. Shu taraqqiyot bilan birga ilm-fan, madaniyat ham tez gurkirab o'sa boshlaydi. Bu taraqqiyot jahon tarixida hozirgacha mo'tabar sahifani egallab turibdi. Taraqqiyotning asosiy markazi Attika viloyati edi - hozirgi Afina. Bu davlat Attika yo Afina davlati, eramizdan avval X-IX asrlarda yashnagan madaniyat Afina yoki Attika madaniyati deb yuritiladi. Notiqlik san'ati jahon madaniyati tarixida yunon notiqligining Attika davri notiqligi deb yuritiladi.

Eramizdan avvalgi V asrga kelib Yunoniston hududi yirik shaharlar doirasida uyushgan kichik davlatlardan iborat edi. Bu shahar-davlatlar polislar deb atalardi. Har bir polis mustaqil davlat sifatida demokratik asosda ish ko'rardi. Afina davlati shu polislar ichida eng yirigi edi.

Afina davlatida uch organ hal qiluvchi qudratga ega bo'lgan. Ulardan biri xalq majlisi, ikkinchisi Besh yuzlar Kengashi deb ataladi. Sud ham katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan. Shu uch organ yunon demokratiyasini tashkil etardi.

Attika notiqligi 2 davrga bo'linadi.

1. Eramizdan oldingi 462-yilgacha. Afina davlat tuzumi eng demokratik tusga kirguncha.
2. Eramizdan oldingi 462-332-yillar orasi, Afina davlati Makedoniyaga qaram bo'lib qolgan vaqtgacha.

Afina davlati jahonga notiqlik san'atining yirik namoyandalarini yetkazib berdi. Ma'rifatparvar kishi sifatida o'z atrofiga Anaksagor, Suqrot, Gerodot, Sofokl, Fidiy kabi buyuk siymolarni to'plagan va ularga homiylik qilgan, notiqlik san'atida barkamol Perikl; o'z notiqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notiqlik uslublariga qaqshatqich zarba bergan va o'z zamondoshlarini ergashtira olgan, muzokara bobida juda kuchli bo'lgan Kleon; logograflik bilan shug'ullangan, o'zidan keyin o'tgan Iisey, Giperid va Demosfen kabi yirik notiqlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan

Shunday qilib, Yunonistonda notiqlik san'ati yuksak darajada taraqqiy etdi. Yunoniston -jahon notiqlik san'atining yirik namoyandalarini yetkazib berdi. Perikl, Lisiy, Demosfen, Aristotel' ana shular jumlasidandir.

Perikl yirik siyosiy arbobgina bo'lib qolmay, ko'zga ko'ringan notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta matni ham bizga qadar etib kelmagan. Lekin uning usta, ko'zga ko'ringan notiq bo'lganligi haqida grek tarixchisi Fukidid ma'lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, shaklning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar ruhiyatini e'tiborga olganligi bilan xarakterlanardi.

Eramizdan oldingi V asr oxiri va IV asr boshlarida yashab o'tgan taniqli sud notiqalaridan biri Lisiy edi. U usta logograf ham bo'lib, o'z himoyasidagi ayblanuvchilarga nutq matnini yozib berardi. Lisiyning notiqligiga xos xususiyatlardan biri hamma notiqalar uchun zarur bo'lgan usul-fikrni yangicha shaklga solishni juda oson egallaganligidir. U gapirishi lozim bo'lgan kishining xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnini ishlab chiqishga usta ediki, bu nutq faqat o'sha so'zlovchigagina xos bo'lardi.

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san'atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli, qiziqarli shaklda hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san'atidagi uchinchi xususiyat uslubidagi aniqlik soddalik va tabiiylik edi.

Qadimgi Yunonistonning buyuk notiqalaridan yana biri Demosfendir. Demosfen eramizgacha 384 - yilda tug'ilib, 322 - yilda vafot etgan. U dastlab o'zini himoya qiluvchi sud notig'i sifatida tanilgan. Keyinchalik u logograflik qiladi.

Demosfendan keyin o'zining notiqlik talanti bilan nom chiqargan Aristotel' eramizdan oldingi 335 yilda notiqlik san'ati nazariyasi - «Ritorika» asarini yaratdi.

Bu asar uch qismdan iborat:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo'lgan tamoyillar tahlili.
2. Notiq uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyat va qobiliyat.
3. Notiq nutqida qo'llaniladigan nutq texnikasi, nutq usullari.

Aristotel nutq uslubiga alohida e'tibor beradi. Aristotelning notiq uslubi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. U notiq nutqi uslubining layoqatliligi uning aniqligi bilan belgilanadi, deb juda to'g'ri ko'rsatadi. Agar nutq aniq bo'lmasa, notiq o'z maqsadiga erisha olmaydi, tinglovchilarga keraklicha ta'sir etolmaydi. Taniqli faylasuf, ayrim notiqalar nutqida epitet, o'xshatish, metafora va boshqalarning o'rinsiz qo'llanishini qoralaydi va ularni to'g'ri qo'llay bilish nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi.

Rim notiqlik san'ati yunon notiqlik san'atining davomi sifatida yuzaga keldi. Rimdagi iqtisodiy va siyosiy o'sishning xarakteri notiqlik san'atining yangi tipini yaratdi.

Rimlik notiqalardan biri eramizdan ilgari III - II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblardan Mark Partius Kato yoki Katondir. Katon notiq sifatida nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug'ullangan.

Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy va Kay Grakx, Mark Antoniy, Mark Tulliy Ciceron kabi taniqli qator notiqalar yetishib chiqdiki, bular ichida eng buyuk va so'zamoli notiq Ciceron edi. Ciceron va Demosfen qadimgi notiqalarning eng buyuklari edi. Demosfen ko'proq o'zining siyosiy notiqligi bilan shuhrat topgan bo'lsa, Sitseron sud notiqligi bilan tanildi. Albatta, Sitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi. Rimda, umuman, siyosiy tomonni chetlab o'tgan birorta ham yaxshi notiq bo'lmagan.

Sitseron timsolida notqlik san'atining nazariyasi hayot tajribasi va nazariyasi bilan muvaffaqiyatli ravishda qo'shib olib borildi. U notqlik san'ati nazariyasining ayrim tomonlarini ishlab chiqibgina qolmay, o'z notqlik chiqishlari bilan buni tajribada isbot etdi. Sitseron nutqining muvaffaqiyatli chiqishi uchun notiq quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozimligini ko'rsatadi:

1. Notiqning o'ziga ishonchi mustahkam bo'lishi kerak. Buning uchun esa notiq o'z nutqida olg'a suriladigan fikrga to'la ishonch hosil qilishi lozim.
2. Nutq to'liq isbotli dalillarga ega bo'lishi kerak.
3. Materialni to'plash nutqda tayyorgarlikning asosidir.
4. Materialni to'g'ri joylashtirish-ekspozitsiyaga alohida e'tibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo'lsinki, u materialni butunlay o'zlashtirib olishga engillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo'lish lozim.
5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi. Agar notiq o'z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san'atkor bo'lmasin, o'z tinglovchisini jalb etolmaydi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Sitserondan quyidagi asarlar qolgan:

1. Jami 150 nutq. Shundan 58 tasi bizgacha yetib kelgan.
2. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar. Notqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola. Jami 800 ga yaqin maktub.

Sitseronning notqlik san'atiga bag'ishlangan asarlari orasida uch risola – "Notiq haqida", "Brut yoki mashhur notiq haqida" va "Notiq" nomli asarlari juda katta tarixiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu risolalarda notqlik san'ati deyarli barcha aspektlarda tahlil etilgan.

Kvintilian Rimdagi notqlik maktabining asoschisi hisoblanadi. Ungacha notqlik bilimni berish xususiy maktablarda amalga oshirilgan.

XULOSA

G'arb sivilizatsiyasida notqlikning paydo bo'lishi va shakllanishida qadimgi Yunoniston va Rim asosiy o'rin tutadi. Ritorika- so'z san'ati rivojlanishida tamal toshini qo'ygan yunon va rimlik faylasuflar notqlikning muayyan shakl, ketma-ketlik, fikrlarni dalillash kabi komponentlarini yaratib berishgan. Ular notqlik san'atining amaliy maqsadlarini amalga oshirishda lingvistik va adabiy nutq masalalarini chuqur o'rganishdi, ifoda vositalarini tushuntirib, klassifikatsiya qildilar va ulardan to'g'ri foydalanish me'yorlarini va nutqqa qo'yilgan mezonlarni ishlab chiqdilar. Bundan esa, hozirgi zamonaviy notqlikning G'arbdagi ilk ko'rinishi qadimdan mukammal tarzda shakllangani ma'lum bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aflotun. (Qonunlar). Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2002.
2. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. –Toshkent: Fan, 2008. –242 b.
3. Bekmirzayev N. Notiqning yon daftari. T., —“Fan”, 2007.
4. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. — T., “Fan”, 2007.
5. Muhammadjonova L. Ritorika. — T., 2019. 169 b.
6. Ortiqov A. “Nutq madaniyati va notiqlik san'ati”. — T., 2002.
7. Qudratov T. “Nutq madaniyati asoslari” — T., “O‘qituvchi”, 1993.
8. Qung‘urov R , Begmatov E., Tojiyev Yo. “Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari”. — T., “O‘qituvchi”, 1992
9. Carnagey D. (AKA Dale Carnegie), J. Berg Esenwein "The Art of Public Speaking" 2005 (EBook #16317]. 285 p.
10. College of the Canyons. Tammera Stokes Rice, Natalie Miller, Victoria Leomard "Fundamentals of Public Speaking": 2017. 410 p:
11. АпресянГ.Р. Ораторскоеискусство.- М 1978
12. Аристотел. Риторика. М., 1978.
13. АсеренсеваС. ОраториГреции. –М. «Худ. лит» 1985.
14. МихневичА.Э. Окрасноречившуткуивсерёз. –М. Знание. 1989
15. Цицерон“Философскиетрактаты”. —М., Изд. Наука, 1985.
16. <http://diss.natlib.uz/>
17. <http://historik.ru/>
18. <http://uzbobur.zn.uz/adabiyot/>
19. http://www.dissertant.uz/view_cat.php?cat=13
20. <http://ziyonet.uz/>
21. [www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 756](http://www.openscience.uz/)
22. <https://www.natlib.uz/>